



ANTROPONIM KOMPONENTLI TURG'UN BIRIKMALAR O'RGANILISHI

Okhunjonov A.Sh.

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: leksema, so'z turkumlari, turg'un birikmalar.

Ключевые слова: лексема, категории слов, устойчивые сочетания.

Key words: lexeme, word categories, stationary combinations.

Til narsa va hodisalar, ular haqida xilma-xil hamda murakkab tushunchalar, ularning qirralarini asosiy belgi xususiyatlariga tayangan holda umumlashtirib nomlaydi. Masalan, o'zbek tilidagi qovun o'simligi va uning mahsuloti qovun deb yuritiladi. Xuddi shuningdek, o'zbek tilida tirik mavjudot umumiy tarzda qo'y deb yuritiladi. Keyinchalik qovun va qo'y ma'lum xususiyatiga ko'ra qo'shimcha guruhlariga bo'lib nomlanadi. Masalan, ko'kcha, olapo'choq, bo'rikalla qovun nomlari, hisor qo'yi, qozoqi qo'y, merenos kabi. Ammo, bu yerda ham ular haqidagi tushunchani jamlab, umumlashtirib atash mavjud. Agar bunday qilinmasdan har bir qovun donasi yoki qo'y donasi alohida nomlanaverganida (aslida bu ilojsiz) tilning leksik boyligi miqdoran cheksiz bo'lib ketar, til o'zining kommunikativ vazifasini ado eta olmasdi. Demak, narsa va hodisalarni, obektiv olamdagi barcha mavjud borliqni umumlashtirib nomlash inson tafakkuri va tilining ulug' mo'jizasidir.

Ammo jamiyatning kundalik muloqoti, lisoniy hayoti uchun zarur bo'lgan ikkincha bir ehtiyoj ham bor. Bu obektiv borliqdagi narsa va hodisalar, tirik mavjudotlarning har birini alohida, yakkalab, donalab nomlashdir.

Har qanday til o'zining ko'p qirrali kommunikativ funkcion ehtiyoji va vazifasini ta'minlay oladigan darajada lisoniy vositalarga ega. Mana shunday vositalardan biri konkret va mavhum, real mavjud yoki xayoliy, diniy-falsafiy, madaniy va maishiy sohalarga oid narsa va hodisalar haqida tushunchalarni ifoda etuvchi leksema (so'z)lardir.

Qadimda kishilar tabiat hodisalarining sirini hali yaxshi bilmagan paytlarda ko'zi tushgan narsalariga umumiy nom berishgan. Bunday nomlar turli obektlarni,



narsa, hodisalarni o'zaro ajratish, farqlash uchun xizmat qilgan. Masalan, suv so'zi suvni va har qanday suvni, tog' so'zi ushbu obekt tipiga kiradigan har qanday tog'ni anglatgan. Ammo asta sekin qadimiy odamlar atrofidagi suv oqadigan ko'plab obektlarga, tog'larga duch kelishgan. Kishilarda suv oqadigan bitta obektni (daryo, soy, o'zan, buloq va boshqalar), bir- biridan farqlanuvchi tog'larni, tepalik va qirlarni bir-biridan ajratish ehtiyoji tug'ilgan. Chunki qadimiy odamlarning yashash maskanlari u yo bu tog'da joylashgan g'orlarda, daryolar qirg'og'ida bo'lgan. Ular o'z yashash maskanlarini to'g'ri topib kelishi uchun, ovchilik qiladigan joylarini yanglishmay topishi uchun tog'lar, daryolar mo'ljal, belgi rolini o'ynagan. Natijada yakka biror tog'ni yoki daryoni boshqa tog' va daryodan farqlash uchun qo'shimcha maxsus nomlar berishgan. Qadimdan mavjud bo'lgan Oqdaryo, Qoradaryo, Qoratog', Ulug'tog' kabi nomlar mana shunday paydo bo'la boshlagan .

Obektning, narsa va hodisaning bir donasini yakkalab, donalab alohida olgan holda nomlash hayot ehtiyoji talab qilgan barcha narsalarga tarqala boshlagan va tilda endilikda atoqli otlar deb yuritiladigan nomlar ko'paya borgan. Qayd qilingan hayotiy ehtiyoj urug', qabila, to'p, guruh bo'lib yashaydigan, bir urug' va oilaga mansub bo'lgan odamlarni bir-biridan farqlash lozimligini ham yuzaga keltirgan.

Qadimda yashagan kishilarning ijtimoiy hayotini o'rgangan bir qator tarixchi, etnograflarning qayd qilishlaricha, biror urug' va qabilaning umumiy nomi bo'lgan, o'sha urug' yoki qabilaga mansub shaxsning nomi u mansub bo'lgan urug' yoki qabila namiga mos bo'lgan, ya'ni o'sha etnik guruhga mansub shaxs urug' nomi bilan atalgan. Urug' yoki qabila nomlari esa etnik guruh muqaddas, ilohiy deb sig'inuvchi biror hayvon, qush nomidan iborat bo'lgan. Asta-sekin bu an'ana o'zgarib, urug' va qabila a'zosi bo'lgan har bir shaxs alohida ism yoki laqab bilan ataladigan bo'lgan. Mana shunday qilib, kishi ismlari (shaxsning dastlabki, ilk atoqli otlari) paydo bo'lgan. Endilikda tilshunoslikda turdosh va atoqli otlar deb yuritilayotgan ikki ulkan ot guruhi vujudga kelgan. Mana shu ikki guruh tilning leksik tarkibini, lug'aviy boyligini, tizimini tashkil qiladi.

Tildagi atoqli otlarni, ularning paydo bo'lishi, motivativ asoslarini, semantikasi, lisoniy strukturasi tilshunoslikning onomastika bo'limi tadqiq qiladi. Onomastika - aslida grekcha so'z bo'lib, "nom berish san'ati" ma'nosini bildiradi

Onomastika til onomastikasi birliklarini tashkil qiluvchi har qanday atoqli otni lingvistik va sotsiolingvistik aspektida tadqiq qiladi. Onomastikon - biror tildagi atoqli otlarning umumiy majmuini ifoda etadigan lugatdir va u muayyan davrdagi etnik guruhning tiliga tegishli bo'lgan atoqli otlar repertuaridir. Masalan, S.V.Veselovskiyning "Onomastikon" asari .

Garchi, “Onomastikon” nomi bilan nashr qilinmagan bo’lsa-da, SH.Japarovning “Kogaz adam attarining sozdugu”, G.F Sattarov ning “Tatar ismleri suzlege”, T.Jonuzakov, K.Yesbayevalarning “Qazaq yesemdari”, “Spravochnik lichnix imen narodov RSFSR « asarlari o’sha hududda yashovchi xalq va millat ismlarining hozirgi davrdagi asosiy fondini yig’indisi bo’lgani uchun onomastikon (aniqrogi antropokon)ta yaqin turadi.

Ma’lumki, har qanday fan o’zining tadqiq obektiga ega bo’lishi kerak. Yuqoridagi gapimizdan ma’lum bo’ladiki, onomastikaning tadqiq obekti tildagi har qanday atoqli otlar ekan.

Yana shu narsa ham ma’lumki, tildagi lug’aviy-ma’noviy guruhlar va leksemalarning tiplarini muayyan lisoniy birliklar tashkil qiladi. Mana shu lisoniy birliklar tilshunoslikda muayyan soha va yo’nalishning tadqiq obekti hisoblanadi. Masalan, o’zbek tilshunosligining fonetika bo’limi fonemalarni, leksikologiya bo’limi leksemalarni, semasiologiya leksemalarning ma’nolarini, morfologiya bo’limi morfemalarni, so’z yasalihi bo’limi tilda so’z yasalihsining usul va tiplarini, sintaksis bo’limi esa sintagmalar, gap, matnni, lingvopoetika esa til vositalarining badiiy qimmatini tadqiq qiladi va boshqalar.

Xo’sh, onomastika ham tilshunoslik sohasi sifatida mana shunday birliklarga egami? Ha, ega.

Onomastika o’rganadigan til birliklari onoma(opsh), ya’ni atoqli otning ko’rinishi va tiplaridir. Bular antroponim, toponim, zoonim, fitonim, gsosmonim, teonim va boshqalardir. Keltirilgan terminlar onomastik birliklarning tiplarini umumiy nomlaydi. Aslida, bu onomastik birliklarning har biri bir qator mikroonomastik birliklar majmuidan tashkil topgan. Ularni bir maxsus maqolalarda keng yoritganmiz.

Taniqli nomshunos A.V.Superanskaya atrofda real va noreal (xayoliy) obektlarni ifoda etadigan atoqli otlarni onomastik ko’lam (onomastik majmua) tushunchasi ostida yoritgan ekan, bu majmua tarkibiga kiradigan 19 tip atoqli otlarni keltirgan.

Ozarbayjon tilshunosi A.M.Gurbanov “Muasiz ozarbayjan zdebi tili” kitobida leksikologiyaning maxsus bo’limlaridan birini “onomalokiya” (onomastika) tashkil qiladi, deb hisoblaydi hamda onomastik birliklarni “onomastik vohidlar” deb yuritadi hamda ushbu vohidlarni tashkil etadigan atoqli otlarning 7 guruhi antroponimlar, etnonimlar, toponimlar, gidronimlar, zoonimlar, kosmonimlar, ktematonimlar haqida fikr yuritadi. U boshqa asarlarida ham mana shu onomastik bo’limlarni izohlagan. Albatta, ushbu muallifning onomastik birlikni tashkil qiluvchi nomlarning tiplari va chegaralarini belgilashi noto’liq bo’lib, atoqli otning barcha ko’rinishlarini qamrab olmaydi, biz tadqiq qilishni mo’ljallagan mavzu – bu o’zbek tilidagi shaxs (kishi) atoqli otlaridir.



Onomastikaga bagishlangan barcha tadqiqotlarda antroponimlar haqida ham soʻz boradi. Antroponim - asli grekcha soʻz boʻlib, antro- odam+ ponim, yaʼni kishilarga berilgan atoqli otlardir. Oʻzbek tilida bu termin oʻrnida ism, kishi ismi, odam otlari, kishi nomlari kabi terminlar qoʻllaniladi.

Antroponim ham onomastikaning xuddi toponim yoki zoonim kabi lisoniy birligi boʻlib, u oʻz ichiga aniq birliklarni oladi. Masalan, N.V.Podolskaya antroponim termini haqida fikr yuritir yakan, uning tarkibiga ism, otchestvo, familiya, laqab, taxallus, kriptonim (laqab, ism, nom), andronim, ginekonim, patronim kirishini qayd qilgan.

Biror tildagi antroponimlar majmui antroponimiya (xuddi toponimiya, zoonimiya kabi) deb yuritiladi. Masalan, oʻzbek antroponimiyasi, qozoq antroponimiyasi kabi. Antroponimlarni tadqiq qiluvchi soha antroponimika deb nomlanadi va onomastikaning bu boʻlimi antroponimlarning lisoniy va nolisoniy xususiyatlarini tadqiq qiladi. Antroponimika mutaxassisi antroponimist (oʻzbekcha antroponimshunos) deb yuritiladi. Yuqorida onomastikon tushunchasini keltirganimizdek, biror tildagi antroponimlarning yigʻindisi, mavjud antrokonni tashkil qiladi.

Antroponimika oʻrganadigan, antroponimiyaning fondini tashkil qiladigan antroponimik birliklarga nimalar kiradi? Konkret olinadigan boʻlsa, oʻzbek tilidagi kishi atoqli oti boʻlgan quyidagi onomastik vositalar oʻzbek antroponimiyasining birliklaridir:

1. Ismlar - konkret shaxsga berilgan ismlar.
2. Laqablar.
3. Taxalluslar.
4. Oʻzbeklarda shaxsni nomlashning oʻtmishda mavjud boʻlgan baʼzi shakllari («qizi» «oʻgʻli») yordamida nomlash.
5. Shaxsni uning ismiga oʻtmish ajdodlarini nomini tiklash orqali atashning arabcha shakllari (“ibn”, “binni”) yordamida.
6. Oʻtgan asrning 20-30-yillaridan rasmiy ravishda majburan qabul qildirilgan ruscha familiya va ota ismlari.

Yuqorida keltirilganlar antroponimik birliklardir va ularni oʻzbek antroponimiyasi oʻrganadi.

Adabiyotlar:

1. Begmatov E. Antroponimika uzbekskogo yazika: Avtoref. diss... kand. filol. nauk. – Tashkent, 1996. – 28b.
2. Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии. М.: Наука, 1988. С. 96.
3. Вевеловский С. В. Ономастикон. М.: Наука, 1971. С.12
4. Жапаров Ш. Къфгмз адам аттарышьш создугу. Фрунзе: Мектеп, 1979. С.24
5. Саггаров Г. Ф. Татар нсмнери сузлеге. Казан, 1981. С.16
6. Жанузакон Т., Есбаева К. Қааак есемдари. Алма-ата: Наука, 1988. С.12-13



7. Справочник личных имен народов РСФСР. М.: Русский язык, 1979. С. 22
8. Бегматов Э., Авлокулок Я. Ономастик кўлам тушунчаси // Ўзбек тили ва адабиёти. 2007 йил 3-сон. 17-21-бетлар; Ўша муаллифлар. Ўзбек ономастикасининг макро кўлами // Ўзбек тили ва адабиёти. 2007 йил 5-сон. 33-39-бетлар; Ўша муаллифлар. Ўзбек ономастикасининг микро кўлами // Ўзбек тили ва адабиёти. 2008 йил 1-сон. 15 18-бетлар.
9. Суперанская А. В. Общая теория имени собственного. М.: Наука, 1973. С. 144-145.
10. Гурбанов А. М. Азербайжан эдэби дили. Баку: Масриф 1985. 249-272-бетлар.
11. Nazarova, R., Usarova, N., & Kadirova, D. (2021). A general description of the appearance of the writing. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 764-768.
12. Usarova, N. Y., & Nazarov, G. A. K. (2022). The use of borrowed words in language norms. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(10), 237-240.
13. Rahimovna, N. R., Yakubovna, U. N., & Murotjonovich, U. G. (2023). The Peculiarities Of Riddles In Linguistics. *Journal of Positive School Psychology*, 901-905.
14. Sodiqova, S. T. (2023). Comparisons with bird and insect components in the works of uzbek writers. *international journal of social science & interdisciplinary research* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 12(03), 113-114.
15. Zokirovna, I. Z. (2022). Expressing semantic category of value with lexical-semantic method. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 1176-1181.
16. Alisherovna, K. D. (2023). The use of phytonymic praises in english. models and methods for increasing the efficiency of innovative research, 2(22), 20-22.
17. Gofurova Mavluda Botirjon kizi. (2023). An elliptical construction in english and uzbek proverbs. *international bulletin of applied science and technology*, 3(4), 19-21.
18. Omonov, B. (2020). Investigating the translation problems of translating terms and preserving the purity of the language. *Scienceweb academic papers collection*.
19. Tirkashev, D. (2023). Metaphor as an important literary device in “picture of dorian gray” by o. wilde. *Gospodarka i Innowacje.*, 35, 237-239.
20. Otabek, B., Shaxnoza, N., Umida, M., Dilsuz, H., & Hilola, M. (2022). Formation Of Religious Style In Linguistics. *Journal of Positive School Psychology*, 118-124.
21. Makhamatalikizi, A. N. (2021). Necessity and Problems of Typological Study of Onomatopoeia. *International Journal of Development and Public Policy*, 1(5), 101
22. Aliboeva, N. (2023). Imitations in the national linguistic image of the world. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(5), 1105-1107.

РЕЗЮМЕ

Leksemalarning miqdoriy majmui, muayyan tizim sifatida uyushgan holati til lug'aviy fondining tarkibini tashkil qiladi. Ushbu leksemalar, odatda, tilshunoslikda muayyan so'z turkumlariga bo'lib o'rganiladi: ot turkumi, sifat turkumi, fe'l turkumi kabi. Ushbu turkumlar o'z ichida yana qo'shimcha turkumlarga bo'lib tadqiq qilinadi. Mana shunday holat ot turkumini tashkil qiluvchi leksemalar uchun ham tegishlidir.

РЕЗЮМЕ

Количественный комплекс лексем, их организованное состояние как определенная система составляют структуру языкового фонда. Эти лексемы обычно изучаются в лингвистике в виде определенных категорий слов: таких как категория существительного, категория прилагательного, категория глагола. Эти категории снова исследуются внутри себя в виде дополнительных категорий. Такая ситуация актуальна и для лексем, составляющих род существительных.

SUMMARY

The quantitative set of lexemes, its organized state as a specific system, constitutes the composition of the linguistic vocabulary. These lexemes are usually studied in linguistics in particular word categories: noun category, adjective category, like verb category. These categories are further researched within themselves into additional categories. This situation also applies to the lexemes that make up the noun category.